

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Xojimatov</b>	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
<b>B.S.Sobirov</b>	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari .....	448
<b>D.A.Yuldasheva</b>	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi .....	451
<b>I.I.Qirg'izov</b>	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi .....	455
<b>I.T.Yuldashev</b>	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati .....	459
<b>L.E.Tursunova</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari .....	462
<b>M.Achildiyeva</b>	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari .....	468
<b>N.X.Djalalova</b>	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ....	473
<b>N.R.Mansurova</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari .....	478
<b>O.R.Soliyev</b>	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi .....	488
<b>R.A.Orziboyev</b>	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili .....	491
<b>R.J.Soxibov</b>	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi .....	495
<b>A.B.Sulaymanova</b>	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics .....	500
<b>U.T.Isakov</b>	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	503
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni .....	508
<b>J.Sh.Muydinov</b>	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati .....	511
<b>N.M.Madaminov</b>	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati .....	515
<b>M.T.Yunusaliyev</b>	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv .....	518
<b>D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari .....	524
<b>D.K.Rafikova</b>	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
<b>S.H.Mamajonov</b>	
Amir Temur mohir strategik.....	533
<b>D.M.Xolikova</b>	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	536
<b>O.S.Usmonova</b>	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish .....	544



UO'K:78 (7.067)

**O'ZBEK MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING TARIXIY  
TAKOMIL BOSQICHLARI VA YO'LLARI****ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО  
ИСКУССТВА ЭТАПЫ И ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ****HISTORICAL DEVELOPMENT OF UZBEK MUSICAL ART  
STAGES AND WAYS OF IMPROVEMENT****Muyassaxon Achildiyeva** Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Musiqqa ta'limi va madaniyat"  
kafedrası katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'zbek musiqqa san'atining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari borasida fikr-mulohazalar o'z aksini topgan. Shuningdek, o'zbek musiqqa san'atini tarixiy rivojlanish yo'llari va uning shakllanishi xususida muallif nuqtai nazaridan atroflicha ko'rib chiqiladi.*

**Аннотация**

*В данной статье отражены взгляды на этапы и пути исторического развития узбекского музыкального искусства. Также будет подробно рассмотрено историческое развитие узбекской музыки и ее становление с точки зрения автора.*

**Abstract**

*This article reflects the views on the stages and ways of historical development of Uzbek music art. Also, the historical development of Uzbek music and its formation from the author's point of view will be considered in detail.*

**Kalit so'z:** musiqqa, san'at, estetika, katta ashula, madaniyat, etnograf, bastakor, kompozitor.

**Ключевые слова:** музыка, искусство, эстетика, большая песня, культура, этнограф, композитор.

**Key word:** music, art, aesthetics, big song, culture, ethnographer, composer.

**KIRISH**

Dunyoda har bir xalqning o'z o'tmishi, tarixi, madaniyati va san'ati shu bilan birga ajdodlaridan avlodlarga o'tib kelayotgan an'ana, qadriyatlar, rasm-rusumlari, urf-odatlar, marosimlari hamda musiqiy meros namunalari bo'ladi. Xususan, o'zbek musiqqa san'ati borasida to'xtalishdan avval mazkur tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin.

Globalashuv jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda an'anaviy madaniyatining yetakchi sohasi bo'lmish an'anaviy musiqasining ana shunday tarbiyaviy, amaliy ahamiyati g'oyat muhim. Agar jahon miqyosida olib ko'radigan bo'lsak, dunyo an'anaviy madaniyatida og'zaki ijodkorlik va ijrochilik san'atiga burilish, ayniqsa, an'anaviy musiqqa namunalarning tarbiyaviy quvvatidan kuch olishga intilish tamoyili ustuvorlik qilayotganligini ko'rish mumkin. Biz yuksak texnologiyalar zamonida, ilmiy tafakkur g'oyat taraqqiy etgan bir davrda yashayapmiz. Shu bois, globalashuv jarayoni hayotimizga qanchalik chuqur kirib borar ekan, mafkuraning ahamiyati ham shu qadar oshib boraveradi. Chunki musiqqa san'ati, boshqa san'at turlari kabi insonning ruhiyatida yashaydi; uning xalq qo'shiqlari, dostonu-maqomlari mohiyatini anglagan kishi o'zligini anglaydi.

An'anaviy musiqaning bir necha tushunchalari mavjud bo'lgan – xalq musiqasi, og'zaki musiqqa-poetik ijodi, xalq musiqqa ijodi, klassik musiqasi, musiqqa merosi, og'zaki an'anadagi professional musiqasi, folklor musiqasi, kasbiy musiqasi va boshqalar. Ammo hozirgi kunda O'zbekistonning an'anaviy musiqqa merosi ikkita yirik qatlamlari bo'lmish, xalq (xalq musiqqa ijodi yoki musiqqa folklori) va mumtoz (og'zaki professional) musiqasidan iborat bo'lib, har biri cholg'u va aytim-ashula yo'llaridan, ular esa o'ziga xos janrlar tarkibidan tashkil topgan.



### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Binobarin, an'anaviy o'zbek musiqaning o'ziga xos qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi, etnograflar va sayyohchilarning risolalari, qoyatoshlarda (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya (To'proq qal'a, Afrosiyob, Ayrotam, Xalchiyon, Dalvarzintepa, Kampirtepa va boshqalar) va arxitektura yodgorliklarida, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarida saqlanib qolgan. An'anaviy o'zbek musiqasi manbalari orasida o'rta asr Sharq olimlarning "Musiqqa haqida risolalari", XIX asr oxiri – XX asr boshlarida an'anaviy musiqqa namunalari to'plash va yozib olish faoliyati bilan shug'ullangan rus va xorijiy kapelmeyster (A.Eyxgorn, V.Leysek, N.Mironov)lari, rus kompozitorlari va o'zbek bastakorlari (V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel, A.Chetvertakov, Ye.Romanovskaya, II.Akbarov, Yunus Rajabiy, M.Yusupov va boshqalar); San'atshunoslik instituti va konservatoriyaning folklor ekspeditsiyalari materiallari; V.Belyayev, T.Vizgo, F.Karomatli, I.Rajabov, K.Ahmedova-Olimboyeva, M.Ahmedov, T.G'ofurbekov, Yu.Kon, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, R.Yunusov, O.Azimova, A.Jumayev, A.Nazarov, S.Begmatov, O.Ibrohimov va boshqalar ilmiy asarlari asos bo'lgan. Ushbu ishda xalq va mumtoz ijodiyot janrlariga bag'ishlangan A.Fitrat, M.Harratov, Ziyo Said, Hodi Zarif, T.Mirzayev, M.Alaviya, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev va boshqa olimlarning ilmiy asarlaridan ham foydalanilgan.

### NATIJALAR

Milliy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan, hozirgi kunda nomoddiy madaniy meros iborasi bilan nomlanib kelayotgan urf-odat va marosimlar, xalq ijodiyoti va an'anaviy musiqasi durdonalarini saqlash, muhofaza qilish, kelgusi avlodga yetkazish, undan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" to'g'risidagi Qonuni (2009), "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish" Davlat dasturi (2010) huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda va mamlakatimizda yaratilgan ulkan nomoddiy madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash, ilmiy tadqiq etish va keng qamrovda targ'ib etib ommalashtirishning katta imkoniyatlarini ochib berdi.

Zero, xalqimiz tomonidan yaratilgan nomoddiy madaniy merosning har bir janri, namunasi va an'anaviy ijrochilik yo'nalishida ajdodlarimiz badiiy dahosining serqirraligi, betakrorligi, milliy ma'naviyatimizning sarchashmalari qadimiyligi o'z ifodasini topgan. Ushbu meros yosh avlodning badiiy-estetik didini o'stirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kungacha O'zbekistondan "Boysun madaniy muhiti" (2001, 2008), "Shashmaqom musiqasi" (2003, 2008), "Katta ashula" (2009), "Navro'z" (2009, 2016), "Askiya – so'zamollik san'ati" (2014), "Lazgi" (2019) kabi obyektlar YuNESKOning "Insoniyat nomoddiy madaniy merosi durdonasi" Rerezentativ ro'yxatiga kiritildi. Musiqashunos olim Rustambek Abdullayev an'anaviy o'zbek musiqasiga quyidagicha ta'rif beradi.

**An'anaviy o'zbek musiqasi** - bu ulkan badiiy meros bo'lib, ma'lum tarixiy davrlarda og'zaki an'anada xalqimiz va yetuk san'atkorlar tomonidan yaratilib, ijro etilib kelayotgan musiqqa folklori va mumtoz musiqasi ijodiyoti va an'anaviy ijrochiligi usullari hamda uslublari; o'zbek musiqqa cholg'ulari, ularning yakkasoz va ansambli ijrochiligini qamrab oladi. Uning namunalari cholg'u va aytim-ashula yo'llaridan tashkil topgan. An'anaviy o'zbek musiqasi ajdodlarimiz badiiy salohiyatining ko'p asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma'naviyat xazinasidir. Zukko ajdodlarimizning dastlab voqyelikka bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, so'z va kuy vositasida musiqiy-poetik ifodalashlari natijasida xilma-xil musiqali janrlardan tarkib topgan.

Zamonaviy O'zbekiston musiqqa madaniyati musiqqa ijodiyoti, musiqqa ijrochiligi, musiqqa ta'limi va musiqqa ilm-fani kabi tarmoqlaridan iborat bo'lib, ular og'zaki va yozma an'analariga asoslangan. Har biri o'ziga xos sohalarni tashkil etadi, masalan, musiqqa ijodiyoti – an'anaviy musiqqa va bastakorlik ijodiyoti (og'zaki yo'nalishida), kompozitorlik ijodiyoti va ommaviy musiqqa madaniyati (estrada, pop-rok musiqasi) – yozma, nota tizimiga asoslangan, yo'nalishda shakllandi. Shu o'rinda o'zbek musiqqa san'ati tushunchasiga ta'rif berishni lozim.

**O'zbek musiqqa san'ati tushunchasi** - o'tmishdan meros bo'lib qolgan, davrlar silsilasida shakllanib, sayqallanib "ustoz-shogird" ijodiy maktabi asosida, og'izaki tarzda o'tib kelgan, nodir milliy musiqiy meros namunalari, bastakorlar, hofiz-u sozanda (mutrib va mug'anniyalar) tomonidan bastalangan musiqiy navlar (maqom, doston, qo'shiq, ashula, katta ashula) tushuniladi.



O'zbek xalqining ko'xna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma'naviyat manbai bo'lganligi o'tmish tarix zarvaraqlaridan ma'lum. Binobarin, milliy qadriyatlarni ajoyib an'analar ila o'zida mujassam etgan an'anaviy musiqamiz xazinasini hanuzgacha badiiy-estetik qimmatini yo'qotmasdan kelmoqda. An'anaviy musiqaning aytim-ashula (so'z, kuy va ijro) va cholg'u yo'llari (cholg'u, kuy va ijro usuli) uyg'unligi va tarixning chinakam aks sadosi bo'lib doimo saqlanadi.

### MUHOKAMA

O'zbek musiqasining janrlar tizimi g'oyat rang-barang bo'lib, tarixiy asoslari qadim ajdodlarimiz badiiy tafakkuri kashfiyotlariga borib taqaladigan bu ma'naviy qadriyatlar silsilasida an'anaviy madaniyati bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy o'zbek musiqasi ijodiyoti muhim o'rin tutadi. Asrlar osha yuksak darajada taraqqiy etganligi uchun ham ushbu badiiy ijodiyotning o'ziga xos lokal uslublari va ijro usullari kelib chiqqan. Ushbu asosda xalq orasida bolalar marosim qo'shiqlari va cholg'u ohanglaridan tortib to maqom turkumlarigacha ijodiyot va ijrochilik namunalari ko'p asrlar davomida sozandayu-xonandalar va bastakorlar tomonidan ijod etib kelingan. Shu bois cholg'u va aytim-ashula yo'llari avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga og'zaki an'anada o'tib, o'zlashtirilib, sayqal topib hozirgi kungacha rivoj olib kelmoqda.

O'zbek musiqa san'atining tarixiy ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Bugungi kunda o'zbek musiqa san'atini davrlashtirish borasida ham ayrim muammoli masalalar ham yo'q emas. Musiqa san'atining aynan qaysi davridan o'zbek musiqasi qaror topganligi borasida ayrim farazlar ilgari suriladi. Bu borada san'atshunoslik fanlari doktori, professor, musiqashunos olim, folklorshunos Rustambek Abdullayevning ilmiy tadqiqotlarida an'anaviy o'zbek musiqasini tarixiy davrlashtirish borasida tadqiqotlar olib borgan. Olimning ilmiy ishlariga nazar soladigan bo'lsak, an'anaviy o'zbek musiqasining rivojlanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratadi.

**Birinchi bosqich** – XIX asrgacha bosib o'tilgan yo'l, og'zaki an'anada saqlanib rivojlanishi, har biri o'z nomiga va uslubiga ega bo'lishi;

**Ikkinchi bosqich** – XX asrdan boshlab an'anaviy musiqa namunalari yangicha qarash: ularni yozib olish, nashr etish, ilmiy o'rganish, yangi musiqa ta'lim tizimi orqali o'zlashtirish (an'anaviy maktab uslublari saqlagan holda), bastakorlik hamda kompozitorlik ijodiyotida qo'llash. Har bir bosqich o'zgacha ma'lum tarixiy davrlariga bo'linadi.

**Antik**, eng qadimiy davri – miloddan avvalgi ming yillikdan to eramizning IV asrgacha. Ma'lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan asarlar omma tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. Ushbu namunalari qadimiy marosim, fasl va tabiat xodisa (Navro'z, Mergan, Sada, ovchilik, yomg'ir chaqirish va boshqalar)lari bilan bog'liq holda shakllanib, marosim musiqasi yuzaga kelishiga olib kelgan. Inson dunyoqarashi va tafakkuri rivoj olishi natijasida davrga xos namunalari iste'dodli kishilar tomonidan yaratila boshlangan.

**Boshlang'ich o'rta asr davri** – IV-VIII asrlarni qamrab oladi. Ushbu davrda xalq musiqa ijodiyoti rivojlanib, uning o'ziga xos amaliy va noamaliy turlari va janrlari taraqqiy etiladi. Ular muayyan ijodiy an'analar doirasidan chetga chiqmay, qadimdan davom etib kelgan ommaviy ijodning an'analariga bo'ysungan. Ijrochilik madaniyatini yuksalishi, turli ijrochilik yo'nalishlari va mumtoz she'riyatni rivoji professional darajadagi mumtoz musiqa hamda bastakorlik ijodiyoti (sozandachilik va ashulachilik)ni shakllantiradi. Sharqda bastakorlik ijodiyoti asoschisi Borbad Marvaziy (VI-VII asrlar kesimida), uning yetuk ijod namunasi "Xusravoniy" turkumidir. Arab-musulmon madaniyati ta'sirida mahalliy ijodiyot sohalarida uyg'unlik natijasida yangi janrlar yuzaga keladi, jumladan, diniy-ibodat ayimlari. Saroy va shahar musiqa madaniyatlari taraqqiy topadi. An'anaviy musiqaning ikkita asosiy qatlami – musiqa folklori va mumtoz musiqasi keng tarqala boshlaydi.

**Yetuk o'rta asr davri** – IX-XVI asrlarni qamrab oladi, tarixda ushbu davrning ravnaqi "Sharq (musulmon) renessansi" davri deb nom olgan. An'anaviy musiqaning hamma soha va yo'nalishlari, ijrochilik uslub-usullari keng rivoj oladi. Dostonchilik va maqomchilik san'atlari yuzaga keladi. Saroy va shahar madaniyatlarida 12 maqom turkumi o'rin oladi. IX asrdan boshlab "musiqiy risolalarda" Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Mahmud Omuliy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Xusayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroficha o'rganilib kelingan. Ularning risolalarida musiqiy ilmi ("ilmu advor, ilmu ta'lif" va "ilmu iyqa")ning poydevori bo'lmish musiqashunoslik yo'nalishlari (musiqa tarixi, nazariyasi, ijrochiligi, organologiya) shakllanib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta'lim masalalari hamda ularning negizida kuy, lad va usul tuzilmalarini tarkib topishi,



## PEDAGOGIKA

ayniqsa, maqom bilan bog'liq qonun-qoidalari batafsil yoritilgan. Shu yo'lda maqom asoslariga ham nisbatan yagona ilmiy an'ana sifatidagi qarashlar g'aydalanadi.

**Oxirgi o'rta asr davri** – XVII-XIX asrlar, o'zbek musiqa madaniyati degan tushunchani tarqalishi. Shu bois an'anaviy musiqaning ijodkorlik va ijrochilik yo'nalishlari turli oqim va qarashlarga qaramay takomillashib borishi, "Shashmaqom" Buxoroda (XVIII asr), uning negizida keyinchalik "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqomlari", maqom cholg'u va maqom ashula yo'llari, turli maqom turkumlari (tanbur, dutor, surnay uchun) hamda mumtoz ashula yo'llarini keng tarqalishi ushbu davrga mansub. XIX asrning ikkinchi yarmidan mahalliy madaniyatga yangi oqim, yevropa (rus) madaniyati unsurlari ta'sir ko'rsatishi; shu tariqa milliy cholg'ularni to'plash, an'anaviy musiqa namunalari nota tizimi orqali yozib olish ishlari o'rin oladi. Xorazmda "tanbur chizig'i" yozuvida Xorazm tanbur va dutor maqom turkumlari yozib olinib, ijrochilik amaliyotida qo'llanib kelinadi. Darhaqiqat, X-XIII asrlar risolalarida musiqaning bir qator namunalari maxsus yozuvda (Forobiy, Urmaviy tomonlaridan tabulatura-muayyan cholg'uga moslangan yozuvi) tushirish harakatlari amalga oshirilgan. Bu sharq nota yozuvining yaratilishiga zamin berdi: yozuvlar doira va maxsus jadval (tabulatura) shakllariga tushirilgan bo'lib, asosiy tovush pog'onalari ud cholg'usi pardalarini aks ettiruvchi harf, raqam yoki boshqa maxsus belgilari yordamida ifodalangan.

**XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati** – o'zbek musiqa madaniyati uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, o'z taraqqiyoti davomida turli muvaffaqiyatlar va yo'qotishlarni boshidan kechirdi. Aynan bu davrda o'zbek musiqa san'ati hayotida uchta siyosiy tuzumning hukmron mafkurasi to'la o'z aksini topdi. Bu holat an'anaviy musiqasiga ham ta'sir ko'rsatgan. Asrning boshida uning sohalari rivojlanib keldi; ammo unga yangicha qarash ishlari boshlandi – an'anaviy musiqa namunalari yozib olish va nota to'plamlari sifatida nashr etish, jumladan, "Shashmaqom" V.Uspenskiy tomonidan 1923-yili Buxoroda maqomdon ustozlardan yozib olindi va 1924-yili "Olti musiqali poema (maqom)" nomi bilan nashr etildi. Bu davrda "Xorazm maqomlari", "Farg'ona-Toshkent maqomlari", an'anaviy musiqaning cholg'u va aytim-ashula yo'llari ham yozib olinib, ularni ilmiy tadqiq etishda yo'l ochib berildi. Ammo, XX asrning 50-chi yillarida kompozitorlik ijodiyotiga e'tibor qaralgani uchun an'anaviy musiqa inqirozga tushadi. 1970-yillardan boshlab tiklanish va keskin rivojlanish jarayoni bo'lib o'tadi – an'anaviy musiqa namunalari nota yozuvlariga bitilgan, sadolari ohangrabo tasmlariga tushirilgan, yangi ta'lim tizimida o'zlashtirilgan, havaskor va professional ansambllar ijrochilar tomonidan ijro etilib, jonli an'ana tarzida yashab keldi. Ilmiy-tadqiqot ishlari jadallashtirildi, amaliy-targ'ibot faoliyatlari kuchaydi, respublikamizda Xalqaro va respublika miqyosida yirik anjumanlar, festivallar va tanlovlar o'tkazildi (Toshkent, 1975; Samarqand, 1978, 1983, 1987; Buxoro, 1990).

**"XXI asr O'zbekiston musiqa madaniyati"** - mustaqillik davrida an'anaviy musiqa va ijrochiligi yetakchi o'rin egallab kelmoqda. Uning hamma janrlari zamonaviy nota va texnogen (elektron vositalari) yozuvlarida muhrlanib, abadiy yashashga hozirlandi. "Shashmaqom", "Katta ashula", Boysun folklori, "Navro'z" qo'shiq va cholg'u yo'llari "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonalari" sifatida tan olindi. O'zbek an'anaviy musiqa jonli ravishda amaliyotda va ta'lim tizimida o'zlashtirilib, XX-XXI asrlar kesimida yetuk sozanda va hofizlari, baxshi-shoirlar va maqom ansambllari repertuarlaridan mustahkam o'rin oldi va xalqimizga yangicha an'anaviy uslubda taqdim etilmoqda. Respublikamizda Xalqaro miqyosida musiqa festivallari va ilmiy anjumanlar ("Sharq taronalari", "Boysun bahori", "Asrlar sadosi", "Maqomi san'ati") o'tkazilishi an'anaviy musiqa va ijrochiligiga bo'lgan e'tirofni yanada kuchaytirdi. Hozirgi kunda an'anaviy musiqa va ijrochiligi O'zbekiston nomoddiy madaniy merosining "Ijro san'ati" sohasi bo'yicha ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanishi omillari xususida san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, yirik musiqashunos olim Ravshan Yunusov quyidagi fikri ta'kidlaydi.

"O'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanishida mazkur mahalliy uslublar Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqardaryo, Xorazm, Farg'ona-Toshkent (mazkur mahalliy uslubning beshinchisi Qoraqog'iston mahalliy uslubi) uning kelib chiqishi juda ko'p narsalarga bog'liq bo'lgan. Shu jumladan, millatimiz shakllanishining tarixan uzun jarayonida serurug' va ko'p qabilali turkiy tilli qadimiy qavmlarning o'zaro birikib ketkanligi, xalq hayotining uzoq-yaqin o'tmishida ro'y bergan tarixshumul ahamiyatga molik katta ijtimoiy-siyosiy voqeyeliklar (masalan, hozirgi O'zbekiston vohalarining davlatchilik nuqtan nazardan qadimgi zamon va o'rta asrlarda bir qator



katta – kichik podsholiklar, saltanatlar, xonlik va amirliklarga kirgani yoki ichidan bo'linib ketgani), yerli aholining turmush tarzi, qishloq va shahar madaniyatining o'zaro o'zgarib turgan muvozanatlari, dehqonchilik, bog'bonchilik, chorvachilik, kasb – hunarmandchilikning o'rnini, iqtisodiy hamda ichki va tashqi savdo – sotiq ishlarning rivojlanish darajasi, boshqa millat va elatlar bilan o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalarni, yaqin ko'ni – qo'shnichilikning o'zaro ta'siri ahamiyatlidir".

### XULOSA

O'zbek musiqa san'atini kategoriyalarga ajratadigan bo'lsak, yuqorida zikr etilganidek, xalq musiqa ijodiyoti (yoki musiqiy-folklor) va mumtoz musiqa (yoki kasbiy musiqa, og'zaki professional, uztozona)ga ajraladi.

**Xalq musiqa ijodiyoti turi** - xalqning ommaviy ijodi, qo'shiqchilik va cholg'u yo'llarining serqirra mavzuli-janrli rang-barangligi bilan shartlangan. O'zbek xalqining hayoti va tarixi, dunyoqarashi va insoniy munosabatlari o'z aksini qo'shiqchilikning turlari va janrlarida ifodalangan. U lokal uslub va variantlari, cholg'u va aytim yo'llariga xos ijrochilik bilan ajralib turadi; ularda xalqning eng qadimiy davriy qatlamlari saqlanib qolgan (folklorning hayotiyliigi – yaratuvchilik, ijrochilik, targ'ib etilishi va hayot baxshiligidagi). Folklor musiqasi amaliy va noamaliy guruhlariga bo'linib, o'z ichiga alla, mehnat, marosim (mavsumiy, to'y-marosim, aza-motam, maishiy-marosim), tarixiy qo'shiq-aytimlari; marosim, harbiy, cho'poncha, o'ynoqi cholg'u yo'llari hamda maxsus qo'shiqchilikka xos bo'lmish – terma, qo'shiq, lapar, o'lan, yalla va ashula kabi janrlarni kamrab olgan.

**Mumtoz musiqasi** – bu individual (yakka) mualliflik ijodiyoti (mualliflik noma'lum), xalqning yorqin namoyandalari – sozanda, xonanda va bastakorlar mahsuli. Uning ildizlari uzoq o'tmishlarga borib taqaladi; ushbu musiqaning shakllanishi va rivoj olishi boy xalq musiqa ijodi bilan bog'liq – milliy og'zaki va yozma she'riyati va ijrochilik madaniyatining yuksalishi uyg'unligida taraqqiy topgan. Mumtoz musiqasi o'zining janrlar tarkibi va mavzular ko'pqirraligi bilan ajralib turadi. O'tmishda va hozirgi kunlarda ham bastakorlik ijodiyoti bilan hamkorligi va uyg'unligida saqlanib, o'zlashtirilib, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R.Abdullayev. O'zbek mumtoz musiqasi. Toshkent. 2007 y.
2. R.Abdullayev. An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari. Konservatoriya talabalari uchun darslik. "MUSIQA" nashriyoti. Toshkent. 2022-y, 17-b.
3. R.Abdullayev. Katta ashula. (maqola). O'zbekiston san'ati. Toshkent 1989 y.
4. R.Abdullayev. Shedevri kulturmogo naslediya. Moziydan sado. 1(45) Toshkent. 2010 y.
5. «Muzika narodov Azii i Afriki» vipusk V Moskva. 1978 g.
6. "Shashmaqom saboqlari" II kitob, Toshkent. 2005 y.
7. O.Matyoqubov. "Maqomot" Toshkent. 2004 y.
8. O.Matyoqubov. Og'zaki an'anadagi professionol muzika asoslariga kirish. Toshkent. 1983 y.
9. A.Zokirov "Hofizlar silsilasi". (Magistrlilik dissertatsiyasi) Toshkent. 2006 g.
10. S.Mannopov. "So'nmas navolar" (ommabop badiiy risola). 2002 y.
11. Audio yozuv M.Tojiboyev bilan bo'lgan suhbat. T. 2007 y.
12. Andijon san'ati fidoyilari. Toshkent. 2018 y.
13. A.Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. 1995 y.
14. T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.2010 y. "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Special Issue 1 www.openscience.uz 128
15. Mannonov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. Monografiya.
16. H.Nurmatov, N.Yo'ldosheva «O'zbek xalq musiqasi ijodiyoti» o'quv qo'llanma. - T.:«G'ofur G'ulom» nashriyoti, 2007 y.
17. Mahkamova, Sh. R. (2020). XAZRAT NAVOIYNING MUSIKIY TAFAKKURI. Science and Education, 1(Special Issue 4), 215-222.
18. G. Sharipova «Musiqa metodikasi». - T. « O'zbekiston faylasuflar» nashriyoti, 2012 u
19. Mahkamova, Sh. R. (2020). MUSIQA ILMI VA ISLOM DINI: TALQIN MUAMMOSI. Academic research in educational sciences, (3).
20. Asadullayeva.M.A. "Xalq ta'limi" Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda qo'shiqchilik san'atining tutgan o'rnini. 2020-№3
21. Maxkamova, Sh. R. Asadullayeva, M. A. (2020). «VELIKIY SHYOLKOVIIY PUT»: VZAIMODEYSTVIYE KULTUR ZAPADA I VOSTOKA V KONTEKSTE PROBLEMI MODERNIZASII MUZIKALNOGO OBRAZOVANIYA V UZBEKISTANE. Science and Education, 1(Special Issue 4).